

BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI DARSIDA GEYMIFIKATSIYA TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH YO'LLARI

Mergenbaeva Asiya Erkebaevna

Nukus shahri 17-sonli umumiy

o'rta ta'lim maktabining

boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Bugungi kunda ta'lim tizimida o'quvchilarning faolligini oshirish, bilimlarni o'zlashtirishini ta'minlash ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida bolalarning darsga bo'lgan qiziqishi va motivatsiyasi ularning keyingi o'quv faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, an'anaviy o'qitish usulini zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan boyitish zarurati yuzaga kelmoqda.

Talqin va muhokama

Boshlang'ich ta'limda geymifikatsiya texnologiyalarini qo'llashning nazariy va amaliy asoslari yoritilgan. O'yin elementlariga asoslangan ta'lim jarayoni o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan munosabatini, darsdagi faolligi va bilim olish natijalarini ko'rsatadi.

Geymifikatsiya texnologiyasini mánisi

Geymifikatsiya atamasi ingliz tilidagi "game" - o'yin, "fication" - jarayonga aylantirish so'zlaridan olingan bo'lib, "o'yin elementlarini maxsus bir jarayonga qo'llash" degan ma'noni anglatadi.

Ilmiy manbalarga ko'ra, "gamefication" atamasi ilk bor 2002-yilda britaniyalik dasturchi va tadqiqotchi Laqab Nelling tomonidan qo'llanilgan. Dastlab bu tushuncha axborot texnologiyalari va marketing sohasida qo'llanilgan bo'lib, foydalanuvchilarning faolligini oshirishga xizmat qilgan.

Geymifikatsiyaning ta'lim tizimiga kirib kelishi.

Geymifikatsiya 2010-yildan boshlab ta'lim sohasida keng tarqala boshladi. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar rivoji, interaktiv platformalar va onlayn ta'limning paydo bo'lishi bu jarayonni tezlashtirdi.

Ta'limda geymifikatsiya:

Ball to'plash, reyting jadvali, bosqichlar, musobaqa elementlari orqali o'quvchilarni faollikka undaydi.

Geymifikatsiya texnologiyalari ta'lim jarayoniga o'yin mexanizmlarini integratsiyalash orqali o'quvchini faol ishtirokchiga aylantiradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari tabiatan o'yinga qiziqadigan bo'ladi. Shuning uchun o'yin orqali o'qitish: o'quvchilarning diqqatini jalb qilishga yordam beradi,

mustaqil fikrlashni rivojlantiradi, jamoada ishlash ko'nikmasini shakllantiradi, darsga bo'lgan ijobiy munosabatni kuchaytiradi.

Geymifikatsiya usulidan foydalanib darsni tashkil etish

Geymifikatsiya darsi quyidagi bosqichlar asosida tashkil etilishi mumkin.

1. Dars maqsadini belgilash.

O'qituvchi darsning mavzusi va maqsadini aniq belgilaydi hamda uni o'yin shakliga moslashtiradi.

2. O'yin ssenariysini tuzish.

Dars kvest, musobaqa yoki sayohat ko'rinishida tashkil etiladi. Masalan: "Bilimlar mamlakatiga sayohat"

3. O'yin elementlarini qo'llash.

Ballar, darajalar, stikerlar, smayliklar, rag'batlantiruvchi so'zlar va mukofotlar

4. Jamoaviy va individual topshiriqlar.

O'quvchilar guruhlariga bo'linib yoki yakka tartibda topshiriqlarni bajaradilar.

Ona tili fanidan gamifikasion o'yinlarga misollar:

"So'z ovchisi" o'yini. Bu o'yin orqali berilgan harf yoki bo'g'indan so'zlar tuzadi. Har bir to'g'ri javob uchun ball beriladi. O'yin bolalarning so'z boyligini kengaytiradi.

"Gap tuzish ustasi" o'yini. O'quvchilarga alohida so'zlar berilgan kartochkalar tarqatiladi. Ulardan ma'noli gap tuzish talab etiladi. Eng to'g'ri va go'zal jumla tuzgan o'quvchi rag'batlantiriladi.

"So'z tarmoqlari saroyi" o'yini. Dorskada ot, sifat va fe'llar uchun alohida xonalar chiziladi. O'quvchilar so'zlarni to'g'ri xonaga joylashtirish orqali mavzuni mustahkamlaydilar.

"Harflar sayohati" o'yini. Bu o'yinda o'quvchilar unli va undosh tovushlarni farqlaydilar. O'yin boshlang'ich sinflarda savod o'rgatish davrida samarali hisoblanadi.

Bundan tashqari, geymifikatsiya texnologiyalari o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. O'yin davomida berilgan muammoli vaziyatlar bolani mustaqil yechim topishga undaydi. Natijada o'quvchi nafaqat tayyor bilimni qabul qiluvchi, balki bilim yaratuvchi subyektga aylanadi. Geymifikatsiya texnologiyalaridan foydalanib dars jarayonida o'tkazilgan o'yinlar o'quvchilarda hamkorlikda ishlash, mas'uliyatni his qilish va o'zaro hurmat kabi sifatlarni shakllantiradi. Bu esa boshlang'ich sinf o'quvchilarining shaxs sifatida rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, geymifikatsiya texnologiyalarini qo'llashda o'qituvchining metodik tayyorgarligi muhim ahamiyatga ega. O'yin elementlari darsning asosiy maqsadlariga bo'ysundirilgan holda, o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos

ravishda tanlanishi kerak. Aks holda, o'yin dars mazmunidan ustun kelib, ta'lim samaradorligini pasaytirishi mumkin.

Xulosa

Yuqoridagi tahlillar asosida shuni ta'kidlash mumkinki, boshlang'ich sinflarda ona tili fanidan tashkil etilgan geymifikatsiya texnologiyalari ta'lim samaradorligini oshirishda muhim o'rin tutadi, dars jarayonida foydalanishning afzalligi shundaki, agar an'anaviy dars turlarida tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, geymifikatsiya texnologiyalari ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari izlab topishga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishga, hatto o'zlari xulosa chiqarishga o'rgatadi. Bu o'yinlar o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi, ularning nutq va fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Shu bois ona tili darslarida geymifikatsiya texnologiyalaridan to'g'ri va maqsadli foydalanish ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqadi. Shu bois, o'qituvchilar bu yondashuvni chuqur o'rganib, uni pedagogik faoliyatda tizimli ravishda joriy etishi maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boshlang'ich ta'lim. Toshkent. O'qituvchi. 2018-yil
2. Ona tilini o'qitish metodikasi. Toshkent. Ta'lim. 2019-yil
3. Geymifikatsiya va ta'lim. Toshkent. Fan.2020.